**«TASDIQLAYMAN»**
Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

**A.K. Shadmanov**
**9-fevral 2022-yil**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**
**Rektorat kengashining**
**7-sonli BAYONI**

**Toshkent shahar** **9-fevral 2022-yil**

**Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov** — **Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor**

**Qatnashdilar:** — **Toshkent tibbiyot akademiyasining Rektorat kengashi a'zolari** (ro'yxat bo'yicha)

## K U N T A R T I B I

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinlarda – Akademiya) Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati va ijro intizomi (ta'lim sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlarining bajarilishi bo'yicha hisobot).

**Ma'ruzachi** – Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Aliev Shavkat Rofievich.

2. Akademiyada masofaviy ta'lim holati, muammolar, takomillashtirish yo'llari, takliflar.

**Ma'ruzachi** – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich.

3. Akademiyaning xalqaro hamkorlik doirasida bajarilayotgan ishlari.

**Ma'ruzachi** – Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Israilov Jaxongir Jamshidovich.

4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor | F.L.Azizova |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | T.A.Bobomuratov |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh.Karimov |
| O‘quv-uslubiy bo‘shqarma boshlig‘i | Sh.Sh.Massavirov |
| Yuriskonsult | B.N.Shukurov |

**Q A R O R   Q I L A D I:**

1. Kun tartibining birinchi masalasi - Akademiya Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati va ijro intizomi (ta'lim sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlarining bajarilishi bo'yicha hisobot) – mavzusida Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Aliyev ma'ruza qildi. Ma'ruza axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

1.1. Akademiyaga kelib tushayotgan barcha murojaatlar bo'yicha taalluqli hujjatlarni o'z vaqtida yurg'izilishi va doimiy ravishda tahlili o'tkazilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori F.L.Azizova, Davolash ishlari bo'yicha prorektori M.Sh.Karimov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori J.K.Haqberdiyev, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.Y.G'aipov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.M.Zoxidov, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R. Aliyev.**

**Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.**

1.2. Akademiyada faoliyat yuritib kelayotgan barcha xodimlar tomonidan ijro intizomiga, odob-axloq qoidalari va ichki tartib qoidalariga rioya qilinmaslik holati kuzatilganda, ularga nisbatan intizomiy jazo choralari ko'rilishi ta'minlansin. Shuningdek, ushbu shaxslarga tayinlangan barcha qo'shimcha va ustama haqlar to'lanishi bekor qilinishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor J.K.Haqberdiyev, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R. Aliyev.**

**Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.**

1.3. Akademiyaga kelib tushgan turli hujjatlarning ijro muddati o'tib ijro etilganligi, muddati tugab va bugungi kungacha ijrosi ta'minlanmaganligi yuzasidan mazkur hujjatlarni ijrosi uchun mas'ul bo'lgan xodimlarga chora ko'rilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori J.K.Haqberdiyev, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Aliyev.**

**Muddat: 2022-yil fevral.**

1.4. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Aliyevning to'liq ma'lumoti Akademiyaning Ilmiy kengashida ko'rib chiqilsin.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi "Akademiyada masofaviy ta'lim holati, muammolar, takomillashtirish yo'llari, takliflar" mavzusidagi O'quv ishlari bo'yicha

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor** | **F.L.Azizova** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor** | **T.A.Bobomuratov** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh.Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘shqarma boshlig‘i** | **Sh.Sh.Massavirov** |
| **Yuriskonsult** | **B.N.Shukurov** |

prorektor Sh.A.Boymuradovning ma`lumotlari axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Akademiyaning barcha kafedralarida internet tarmog'iga ulanishdagi muammolar o'rganilib chiqilsin va tegishli shart-sharoitlar yaratilishi ta`minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori J.K.Haqberdiyev, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.Y.Goipov, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022- yil fevral - mart.**

2.2. Barcha kafedralarning moddiy texnik bazasini (o'quv xonalari, jihozlar, kompyuter, printer va boshqa) yaxshilash bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori J.K.Haqberdiyev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.Y.Goipov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022-yil fevral - mart.**

2.3. Barcha fanlar bo'yicha MOODLE platformasida mavjud muammolar, shu jumladan, adabiyotlarning umumiy ro'yxati, har xil turdagi topshiriqlar, amaliy ko`nikmalar ruyxati va boshqalar lotin alifbosida kiritilishi hamda dars mavzulari va e'lonlar to'liq yangilanishi ta`minlansin hamda nazoratga olinsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i D.R.Sadikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022 yil fevral - mart.**

2.4. Kafedra professor-o'qituvchilariga kuzgi semestrda barcha qarzdorlik va imtixonlarni masofaviy o'tkazilishi haqida muntazam ravishda xabardor qilinishi ta`minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i D.R.Sadikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022 yil fevral.**

2.5. Masofaviy ta'lim jarayonida talaba bilimini ob`ektiv baholash maqsadida oraliq va yakuniy nazorat turlarini takomillashtirilishi va doimiy nazorat qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i D.R.Sadikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

2.6. Favqulotdagi vaziyatlarda (pandemiya va boshqa) talabaning (bakalavr, magistr, klinik ordinator, doktorant) sifatli mustaqil ishlashi va bilim olishi maqsadida dekanat, o'quv bo`limi, o'quv ishlari prorektori va ta'lim sifatini nazorat qilish bo`limlari

| | | |
|---|---|---|
| **O'quv ishlari bo'yicha prorektor** | | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor** | | **F.L.Azizova** |
| **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor** | | **T.A.Bobomuratov** |
| **Davolash ishlari bo'yicha prorektor** | | **M.Sh.Karimov** |
| **O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i** | | **Sh.Sh.Massavirov** |
| **Yuriskonsult** | | **B.N.Shukurov** |

tomonidan tegishli masofaviy tizimni takomillashtirish bo'yicha (on-layn, gibrid) takliflar kiritilsin, muhokamadan o'tkazilsin va tasdiqlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i D.R.Sadikova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.M.Zoxidov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022 yil fevral - mart.**

3. Kun tartibining uchinchi masalasi "Akademiyaning xalqaro hamkorlik doirasida bajarilayotgan ishlari" mavzusidagi Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Israilovning ma'lumotlari axborot uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

4. Turli masalalar bo'yicha Akademiyaning Bosh auditori S.I.Do'stmuradovning axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi. Rektorat Kengashi o'z ishini yakunladi.**

**Oliy ta'lim muassasasi**
**kengash kotibi** **G.A. Ismailova**

| | |
|---|---|
| O'quv ishlari bo'yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor | F.L.Azizova |
| Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | T.A.Bobomuratov |
| Davolash ishlari bo'yicha prorektor | M.Sh.Karimov |
| O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i | Sh.Sh.Massavirov |
| Yuriskonsult | B.N.Shukurov |